

ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



journal.namdu.uz



Bosh muharrir:

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

Mas'ul muharrir:

PhD., dots., A.A. Rasulov

Mas'ul muharrir o'rinbosari:

PhD., dots., O.N. Imomov

TAHRIR HAY'ATI

<u>Fizika-matematika fanlari:</u>	akad. S. Zaynoddinov akad. A. A'zamov f-m.f.d., prof. B. Samatov f-m.f.d., dots. R. Xakimov f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
<u>Biologiya fanlari:</u>	akad. K. Tojibayev akad. R. Sobirov b.f.d., prof. A. Batashov b.f.d., prof. N. Abdurahmonov b.f.d., prof. F. Kushanov b.f.d., prof. A. Kuchboyev b.f.d., dots. D. Dexqonov
<u>Texnika fanlari:</u>	t.f.d., prof. A. Umarov t.f.d., prof. S. Yunusov
<u>Tarix fanlari:</u>	akad. A. Asqarov s.f.d., prof. T. Fayzullayev s.f.d., prof. N.B. Dexkanov t.f.d, prof. A. Rasulov
<u>Falsafa fanlari:</u>	f.f.d., prof. M. Ismoilov f.f.d. dots. Z. Isaqova f.f.d., G. G'afarova p.f.d., dots. T. Ismoilov PhD. A. Abdullayev
<u>Pedagogika fanlari:</u>	p.f.d., prof. U. Inoyatov p.f.d., prof. B. Xodjayev p.f.d., prof. O'. Asqarova p.f.n., dots. M. Nishonov p.f.n., dots. A. Sattarov p.f.n., dots. M. Asqarova p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva p.f.d., dots. S. Abdullayev PhD., dots. D. Sarimsakova PhD., B. Urinov
<u>Texnik muharrir:</u>	S. Xoshimov
<u>Tahririyat manzili:</u>	Boburshox ko'chasi, 161-uy

<u>Kimyo fanlari:</u>	akad. S. Nigmatov k.f.d., prof. Sh. Abdullayev t.f.d., v.b. prof. G'. Doliyev k.f.n., dots. T. Sattarov k.f.n., dots. A. Hurmamatov PhD. D.S. Xolmatov.
<u>Filologiya fanlari:</u>	fil.f.d., prof. N. Uluqov fil.f.d., prof. H. Usmanova PhD. H. Solixo'jayeva PhD. dots. U. Qo'ziyev PhD. H. Sarimsoqov fil.f.d., N. Dosboyeva
<u>Oishloq xo'jaligi fanlari:</u>	g.f.d., prof. B. Kamalov q-x.f.n., dots. A. Qazaqov
<u>Geografiya fanlari:</u>	g.f.d., dots. B. Kamalov g.f.d., prof. A. Nigmatov g.f.d., dots. A. Nazarov
<u>Iqtisodiyot fanlari:</u>	i.f.d., prof. N. Maxmudov i.f.d., prof. O. Odilov
<u>Tibbiyot fanlari:</u>	b.f.d., prof. G'. Abdullayev tib.f.n., dots. S. Boltaboyev
<u>Psixologiya fanlari:</u>	p.f.d., prof. Z. Nishanova p.f.n., dots. M. Maxsudova

Rasmiy web sahifa:



journal.namdu.uz

Faks: (0369)227-07-61

e-mail: science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega. NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 17-maydagi 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Asadov To'liqin Hamroyevich

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Email: asadovtolqin@gmail.com

RAVISHNING SO'Z TURKUMLARI BILAN INTEGRATSIYASI VA DIFFERENSIATSIYASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil ma'noli o'zgarma so'zlar, ya'ni ravishlar, xususan, ularning etimologik tarkibi o'rganilgan. Shuningdek, ravish bo'lib shakllangan so'zlarning morfologik, semantik, tabiiy yoritilgan. Ot va ravish, sifat va ravish, son va tavish, fe'l va ravish, olmosh va ravish munosabati, ularning o'zaro ta'siri misollar orqali yoritilgan. Boshqa so'z turkumlarining ravishga "o'tishi" va aksincha, ravishlarning yondosh turkumlar guruhidan o'rin olishi izohlangan.

Kalit so'zlar: so'z turkumlari tizimi, turkona tabiat, predmetlik ma'nosi, o'zgarma so'z, adverbializatsiya, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish, pleonazm, semantik mezon, grammatik mezon.

Асадов Тулкин Хамроевич

Доцент кафедры узбекского языкознания и журналистика

Бухарский государственный университет

ИНТЕГРАЦИЯ И ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ НАРЕЧИЙ С ДРУГИМИ ЧАСТЯМИ РЕЧИ

Аннотация: В данной статье рассмотрены морфологические и лексические признаки наречий. А также изучена их этимология. Отношения между существительным и наречием, прилагательным и наречием, глаголом и наречием, местоимением и наречием, их влияние друг-другу освещено с примерами. Разъяснена переход других частей речи на наречие и наоборот место наречие в группах близких частей речи.

Ключевые слова: система частей, тюркская природа, предметное значение, неизменяемые слова, адвербиализация, специализация, упрощение, лексиколизация, семантические критерии, грамматические критерии.

Asadov Tulkin Hamroyevich

Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics and Journalism Bukhara State University

INTEGRATION AND DIFFERENTIATION OF THE ADVERB WITH OTHER PARTS OF SPEECH

Abstract: The article is about adverbs and their etymological structure. The morphological and semantic nature of adverbs is also analyzed in this article. The given article describes relation of noun and adverb, adjective and adverb, numeral and adverb, verb and adverb and their influence to each other. "Transformation" of other parts of speech to the adverb and the contrary, that's to say, the change of the adverb into the other parts of speech have been explained.

Key words: the structure (system) of a part of speech, meaning of the subject, stable words, adverbialization, specialization, simplification, integrity, semantic criteria, grammatic criteria.

Kirish

Turkiy tillarda ham, noturkiy tillarda ham ravish turkumi ot, sifat, son, olmosh, fe'lining ma'lum bir shakllarda o'z paradigmasi (turkumi)dan uzilishi, uzoqlashishi natijasida shakllangan. O'z turkumi, uning forma yasash paradigmasidan biror bir so'zning u yoki bu shaklda uzilib chiqishi va o'ziga xos bir guruhni tashkil etishi (adverbializatsiya) turli davrlar mahsuli sanaladi[1].

Ma'lumki, agglyutinativ tabiatli turkiy tillar qo'shimcha shakllarini qabul qilishiga ko'ra flektiv tillardan ajralib turadi. Mazkur masala turkiyshunoslikda

keng muhokama etilgan[3;4]. Tilshunos olim Abdurauf Fitrat o'zining "Tilimiz" nomli maqolasida (A.Fitrat. Chin sevis - T.,1996, 237-b.) turkiy tillarda qo'shimcha shakllarning o'ta faolligini ta'kidlab, "bil" fe'lining 98 shaklga kira olishini amalda misollar orqali izohlab bergani ham shu bilan bog'liq. Tadqiqotchi tili bilan aytganda "bir tomirdan 98 so'z undirish" kamdan-kam tillarga xos xususiyatdir.

Tahlillar va natijalar

Turkiyshunoslikda ravish sifatida baholanuvchi hozir, bugun, oldin, keyin, erta kabi o'nlab so'zlarning egalik,

kelishik va hatto ko'plik shakli bilan erkin birika olishi (o'zgarishi) o'zbek tiliga xos tabiiy holat hisoblanadi. Ravish guruhiga kiritilgan yuqoridagi so'zlarning son, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan birikishida hech qanday zo'rma-zo'rakilik yoki g'ayritabiiylik sezilmaydi. Bunday so'zlarning o'zgarishi bu tilda so'zlovchilar uchun g'ayrioddiy emas, balki tabiiy kechadi. Masalan: *Bugunning mehnati – ertaning mevasi.* (Maqol) Agar *boya, endi, olg'a, to'satdan, picha, lutfan* kabi (1-guruh) so'zlarini *hozir, keyin, oldin, kecha, bugun, erta* kabi (2-guruh) so'zlari bilan qiyoslagan holda ularga kelishik qo'shimchalarini qo'shib ko'rishga harakat qilsak, 1-guruh so'zlari morfologik o'zgarimasligi bilan alohidalik kasb etadi.

Umuman, o'zbek tilida so'zlarning morfologik o'zgarishi (aglyutinativ mohiyat) o'ta keng. Shu bilan birga, morfologik jihatdan mutlaqo o'zgarimas mustaqil ma'noli so'zlar guruhi ham mavjud. Mana shu guruhning ravish sifatida belgilash ravishning tub tabiatini ochishga va tasniflashga asos bo'ladi.

Boshqa bir masala, ya'ni *o'ngga, o'ngda, o'ngdan* kabi so'zlarda *o'ng* lug'aviy asosida kelishik paradigmasining notugalligi (qaratqich va tushum kelishigi shakliga kira olmasligi) mazkur so'zlarning turkum jihatdan qat'iy o'rnini belgilashda qiyinchilik tug'diradi. Bu so'zlar (*o'ngga, o'ngda, o'ngdan*) hali o'zining lug'aviy asosi *o'ng* leksemasi bilan aloqasini batamom uzmagani, lekin aloqa uzish arafasida turibdi, deyish mumkin. Shuningdek, *o'ng* leksemasida so'z o'zgartirish qobiliyati ham, makonyo'nalish belgisini ifodalagan holda predmetlik bilan bog'liqlik ham to'la yo'qolgan emas. Shuning uchun *o'ngga, o'ngda, o'ngdan* kabi so'zshakllarni qat'iy ot yoki sifatning shakli sifatida yoki ravish tarkibiga mansub soddalashgan leksema sifatida baholash qiyin. Bu hosilalar kelishik shaklida "ravishlashayotgan" oraliq birliklardir. Bu qatorga *ro'para (-siga, -sida, -sidan), old (-i-ga, -i-da, -i-dan), orqa (-si-ga, -si-da, -si-dan), yon (-i-ga, -i-da, -i-dan), o'rta (-si-ga, -si-da, -si-dan), ora (-si-ga, -si-da, -si-dan), ost (-i-ga, -i-da, -i-dan), ust (-i-ga, -i-da, -i-dan), tag (-i-ga, -i-da, -i-dan), tepa (-ga, -da, -dan), tashqari (-ga, -da, -dan), yuza (-si-ga, -si-da, -si-dan), o'ng (-ga, -da, -dan), chap (-ga, -da, -dan), ket (-iga, -ida, -idan), tub (-i-ga, -i-da, -i-dan), ort (-i-ga, -i-da, -idan)* kabi so'zlar ham mansub.

Ravish tabiati boshqa turkum so'zlari bilan qiyoslanganda oydinlashadi. Masalan, ravish va otning tabiatan (semantik jihatdan) o'xshashligi, xususan, har ikkala so'z turkumining o'rin va paytga munosabatida bilinadi. Shu jihatdan bu ikki turkum yondoshlik kasb etadi. Biroq ravishning morfologik o'zgarimasligi mazkur turkumni otlardan farqlovchi asosiy unsur sifatida baholanadi.

Ravish rivoji bevosita va bilvosita ot turkumi bilan uzviy bog'liq. Chunki mazkur guruh ot bilan bog'li holatda turli usullarda – affiksatsiya usulida so'z yasash (*yigitchasiga, andijonchasiga, buxorochasiga, ispanchasiga, mahsichang, kurtkachang, olimona, sheksprona, qahhorona* va

b.); reduplikatsiya usuli (*qop-qop un, vagon-vagon don, samolyot-samolyot mahsulot* va b.); leksikalizatsiya va uning ko'rinishlari bo'lgan soddalashish (*tubdan, zimdan, nari, beri*), ixtisoslashish (*boshdan-oyoq, boshdan, irimiga, quruqqa*) hodisalari orqali boyib boradi. Xulosa qilish mumkinki, bir guruh ravish so'zlar otning grammatik ma'nosi zamirida yuzaga keladi. Nafaqat ot, balki boshqa turkumlar bilan ham bu kabi hodisalar ravishda u yoki bu darajada kuzatiladi.

Ravish va ot differensiyasida yana bir dalil e'tiborga loyiqlik, belgi ifodalovchi turkum – ravish predmetlik ma'nosiga ega bo'lgan otlarga zidlanadi[1,26]. Predmetlik ma'nosi otlarda yorqin, sifatlarda yashirin (assotsiativ) ravishlarda o'ta kuchsizlangan holda namoyon bo'ladi. (Masalan: *Boya, bir daqiqa oldin, men bu haqda gapirdim* kabi)

Sifat va ravishning differensiyasi bo'yicha turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilida munozarali holatlar, semantik-funksional ajrim, oxirigacha yetmagan o'rinlar muvjudligi hamon ta'kidlanib kelinmoqda[9,5]. Turkiyshunos olim E.V.Sevortyaning e'tirof etishicha, sifat bilan ravishning leksik-semantik tomondan farqlanishi qadimgi yodgorliklar tilidanoq shakllana boshlangan[12,190]. A.N.Baskakov o'tmishda ravishning sifatdan leksik-semantik tomondan juda kuchsiz farqlanganligini qayd etadi[2,204]. Umuman, ravish va sifatning "chatishib" ketgan o'rinlari ko'plab kuzatiladi. Buning bosh (mantiqiy) sababi ravishning ot bilan birga sifat turkumi negizida shakllanganligidir.

Ravish semantik jihatdan sifatga o'xshasa-da, morfologik tabiati (o'zgarimaslik, darajalanmaslik)ga ko'ra farqlanadi. Yevropa tillaridan farqli holda o'zbek tilidagi ravish tabiatan sifatlardек turg'un xarakterdagi belgini ifodalab, aniqlovchi xarakterida bo'lishi mumkin: *sharqona odat, otalarcha maslahat, andak tashvish* va h.k. Bunga nisbatan sifatlashish deb qaralmaydi. Shu bilan birga, bir qator sifatlar harakat jarayonining belgi ifodasini ko'rsata oladi. Masalan, "yaxshi" qabilidagi so'zlar gapda hol bo'lib kelishi bilan xarakterlanadi[13]. Uzoq yillar davomida mana shu masala turli munozaralarga sabab bo'lib keldi. Aniqrog'i, ko'pgina tadqiqotlarda muayyan so'zning semantik taraqqiyoti, buning natijasida ularning o'zaro sintaktik funktsiya almashish imkonini berish holati nazardan chetda qolib keldi. Bu holat leksemaning nutqda keng imkoniyatligi[6] bilan bog'liq hodisadir.

"Yaxshi" qabilidagi so'zlar gapda hol bo'lib kelishiga qaramay (Masalan: *qattiq gapirmoq, chiroyli kulmoq, dadil so'zlamoq, sovuq ko'rishmoq* va b.), odatdagi leksik ma'nosidan uzilmagan. Dalillash uchun "og'ir" leksemasining fe'l bilan birika olish imkoniyatini kuzatamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "og'ir" leksemasining yigirmaga yaqin ma'nosi izohlangan[16,187-189]. Ko'chma ma'no (konnotativ ma'no)da og'ir leksemasi harakat belgisini ham ifodalay oladi: *Uning kulishi Yo'lchiga og'ir tegdi* (Oybek). Bu holat (ish-harakat belgisini ifodalagan sifatlar)ni ayrim

tadqiqotchilar haliyam adverbializatsiya hodisasi sifatida belgilab kelmoqdalar[7,12]. Aslida buni sifat leksemasining nutqdagi imkoniyati sifatida qabul qilish lozim. Ish-harakat belgisini bildirgan har qanday soʻzga ravish deb qarash ayni soʻz turkumiga leksik-grammatik xususiyatlarni zoʻrma-zoʻrakilik bilan tirkashdan oʻzga narsa emas. Qaysi sifatning feʼlga birikib, uning maʼnosini izohlashi maʼlum qonun-qoidalar bilan emas, balki oʻzbek tilining lugʻat tarkibi bilan belgilanadi.

Tarixan kelishik shaklidagi sifatlar ham nutqimizda faol qoʻllanadi. Ellipsis hodisasidagi *balandda, pastda, yuqoridan* kabi sifatlardan farqli holda *yangidan, eskidan, chindan, yolgʻondan, rostdan, qadimdan* kabilar kelishik shaklidagi sifatdan hosil boʻlgan soddalashgan holat ravishlaridir.

Ravish guruhi otlarda boʻlgani kabi sifatlar bilan bogʻli ravishda affiksatsiya, reduplikatsiya, leksikalizatsiya, konversiya hodisalari orqali kengayib kelgan.

Miqdoriy belgi ifodalash deyarli barcha soʻz turkumlariga xos xarakterli xususiyat hisoblanadi. Masalan, ot (*qop-qop, etak-etak*), sifat (*koʻp, oz, kam*), olmosh (*shuncha, buncha, oʻshancha, qancha-qancha*) ravish (*xiyla, birmuncha, bir talay, andak, picha, jindek*), feʼl (*koʻpaymoq, ozaymoq, qalamoq, uymoq, qatorlashtirmoq*) kabi soʻzlar guruhida muayyan bir “miqdor soʻzlar” guruhi mavjud. Koʻrinadiki, miqdoriy maʼno ham ravishlarni boshqa turkumlardan farqlovchi belgi boʻla olmaydi.

Tarkiban oʻzgarib, ravish turkumiga oʻtish (adverbializatsiya) sonlarda birmuncha kam uchraydi. Bu jihatdan «bir» soʻzi (soni)ning turli koʻrinish (shakl)da ravishga koʻchish hodisasigina xarakterlidir. “Bir” soʻzi ayrim kelishik qoʻshimchalari bilan (*birdan, birda*) hamda murakkab shaklda (*birin-sirin, bitta-bitta, bitta-bittalab, birin-кетин, bir zum, bir lahza, bir qancha, bir talay, bir on, birin-birin, birgalikda, biryoʻla, biratoʻla(siga), birakay(iga)*) ravishga oʻtgan. “Bir” soʻzining turli shakllarda ravishga koʻchishi ravish turkumining maʼno guruhini va maxsus stilistik fondini yana ham boyitganligiga guvoh boʻlamiz.

Bir soʻzi frazeologik birikmalardan tuzilgan murakkab ravishlar tarkibida ham uchraydi. Jumladan, *bir pul, bir tiyin boʻlmoq, bir jon bir tan boʻlib, bir piyola choy ichguncha* kabilar semantik jihatdan ravishlarga teng keladigan frazeologizmlar sifatida ajratiladi.

Ravish va olmosh munosabati ham oʻziga xos kechadi. Olmoshlar nutq jarayonida belgi (*qanday, bunday, shunday*), miqdor (*buncha, shuncha, qancha*), payt (*qachon?*), oʻringa (*qayer?*) ishora etuvchi leksemalar ekan, oʻz-oʻzidan, ravishlar bilan oʻzaro munosabatga kirishishi tabiiy. Chunki bu belgilar ravishlarning ham tabiiy xususiyatidir. Xarakterli jihati shundaki, ravishlarda ham olmoshlar kabi biror turkumdagi soʻzga ishora qilish seziladi. Qiyoslang: *Bu yil dehqonlar ter toʻkib mehnat qilishdi. Endi qilingan mehnatning rohatini koʻradilar.* Mazkur bogʻli qurshovdagi *endi* ravishi *bu yil* soʻziga muvofiqlashib

kelyapti, yaʼni oʻtli birikmaga ishora qilyapti. Yoki *ancha* ravishi tarixan “u” olmoshi (an-cha // an <ol)dan yasalgan boʻlib, hozirgi kunda tublashgan leksema sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, ayrim ravishlar “ishoralovchi leksemalar” xarakterida boʻlib, bu jihatdan olmosh bilan hamrohlik qiladi.

Koʻpgina manbalarda ravish sifatida keltiriladigan *buncha/muncha, shuncha, oʻshancha* kabilar turkiyshunoslikda “olmoshsimon ravishlar” (mestoiemeniya-narechiya) deb qarash ham uchraydi[11,16]. Ayrim ishlarda *bunda, unda, unda-bunda* kabi payt va oʻrin maʼnolarida kela oluvchi birliklar ravish sifatida keltiriladi[14,55]. Aslida, mazkur soʻzlar ellipsis hodisasi mahsulidir. (Qiyoslaymiz: *Bunda men yosh edim – Bu vaqtda men yosh edim*). Ayni vaqtda ellipsis hodisasi leksikalizatsiyaga ham yoʻl ochishi mumkin ekan. Bu qisqa vaqtda emas, balki bir-ikki avlod koʻz oʻngida sodir boʻladi.

“Olmoshsimon ravishlar” xarakter eʼtiboriga koʻra miqdor ifodalovchi soʻz (son va ravish)ga “ishora qilish” tabiatiga ega. Ularning matnda miqdoriy belgi ifodalashi (Masalan: *buncha kitob, oʻshancha olmoq* va b.) ravishlarga yaqinlashtirgan. Biroq mazkur soʻzlarning “ishora qila olish” imkoniyatiga tayanib, ularning ravish boʻlolmasligi haqida xulosa chiqara olamiz.

Feʼl shakli boʻlgan ravishdosh va ravish harakat belgisini ifodalashiga koʻra mushtaraklikka ega. Ravishlar “adverbial sintagmalar” hosil qilishi nuqtayi nazaridan feʼlga tobe soʻzlar deb yuritiladi. Ravish feʼl bilan birikib, uning belgisini aniqlab keladi. Shu sababdan oʻtmishda ravishlarga nisbatan «feʼlga xos sifatlar» atamasi ham qoʻllanilgan[15,18]. Bu termin, asosan, hind-evropa tillari tabiatiga xos. Kezi kelganda aytish lozimki, ravishlar sintaktik munosabatda hech qachon hokim komponent maqomida tura olmaydi. Ular sintaktik munosabatda doim tobe soʻz boʻladi. Mana shu jihat ham ularning mustaqilligiga soya soladi.

Ravishdosh shakllari turli maʼno imkoniyatlariga ega[10]. Ravish va ravishdoshning semantik-funksional va sintagmatik yaqinligi koʻpincha ular orasidagi “chegara”ning buzilishiga sabab boʻladi. Oʻzbek tilshunosligi leksik qatlami va grammatikasiga tayanib yaratilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da koʻpgina feʼllarning ravishdosh shakllari ravish soʻz turkumi qatoriga kiritilgan. Jumladan, *aldab-suldab* (69-bet), *aralashib-quralashib* (93), *boʻlib-boʻlib* (409), *tinmay* (102), *uyalmay-netmay* (314), *shosha-pisha* (597) va h.k. kabilar ravish deb izohlangan. Birinchidan, bu kabi **nutqiy birliklar** (soʻzshakllar)ni lugʻatda berilishi nooʻrin (Bu hodisa alohida kuzatishni talab etadi). Ikkinchidan, yuqoridagi soʻzlarni feʼlning takroridan yasalgan *bora-bora, borib-borib, turib-turib, ura-sura* kabi ixtisoslashgan (tublashgan) ravishlardan farqlashimiz kerak. Ixtisoslashgan ravishlarda toʻliq leksik-semantik oʻzgarish yuz bergan boʻladi (leksemalashgan). Bularni lugʻatlar

qamrab ola biladi. Har qanday ravishdoshning takroriga (jumladan, *o'qib-o'qib, kulib-kulib*) ravish deb qarash mantiqan to'g'ri bo'lavermaydi. Takror ravishdoshning ravishga aylanishi uzoq davr mahsuli bo'lib, bunda ravishdosh o'z ma'nosi (tabiati)ni nisbatan yo'qotishi kerak bo'ladi.

Ravish bilan bog'liq yana bir hodisa mavjudki, bu ham mazkur so'z turkumini ziddiyatli talqiniga sabab bo'lyapti. Bu – ayrim ravishlarning ot va sifatga o'tishi masalasi. Hind-Evropa tillarida ot, sifat, olmosh va fe'lining ayrim shakllaridan ravishlar xazinasini muttasil boyib borishi ma'lum. Turkiy, jumladan, o'zbek tilida ham bu jarayon faol kechishini ko'ramiz. Lekin o'zbek tilida G'arbiy Yevropa tillarida kuzatilmagan teskari holat, ya'ni tarixan ravish (o'zgarman so'z) sifatida shakllangan so'zlarning kelishik, son, egalik va hatto daraja ko'rsatkichini qabul qilishga moyillashishini kuzatamiz. Aniqrog'i, ravishlarning morfologik o'zgaruvchan so'zlar guruhi (ot, sifat)ga o'tish jarayoni ham kechmoqda. Bu hol asosan murakkab tarkibli sodda ravishlarda[1;5] kuzatilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, *ichkari, tashqari, ilgari, yuqori, oldin, keyin, nari, beri, tegra* kabi o'rin, payt ma'noli ravishlar sanaladigan (bir xil shakldagi affikslarning pleonastik qo'llanishi: *ichkariga < ich-ka-ri-ga*

kabi. Qarang: 8,51) bu so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida egalik, kelishik, morfologik daraja ko'rsatkichlari bilan erkin birikishiga moyillashishi (Jumladan: *nariga(-da,-dan), ichkarisi(-ga,-da,-dan), tashqarisi, tashqariga(-da,-dan), oldinroq, keyinroq* va h.k.) bularni ravish guruhiga mansub bo'lmagan so'zlar deb xulosa qilishimizga asos bo'ladi.

Xulosa

Umuman, har bir guruhni tashkil etgan leksemalar shunchaki so'zlar yig'indisi bo'lmay, balki ma'lum belgi (semantik, morfologik, sintaktik) asosida tuzilgan leksemalardir. Ravish mustaqil so'z turkumlarining tarkibiy qismi bo'lib, semantik-grammatik tabiatiga ko'ra ba'zida ular bilan birlik hosil qilsa, morfologik tabiati, ya'ni qat'iy o'zgarman mustaqil so'z turkumi ekanligi bilan xarakter kasb etadi. Ravishni belgilashda semantik mezonga emas, balki grammatik (morfologik) mezonga tayanish kerak. Ravish guruhida kuzatiladigan morfologik o'zgaruvchan so'zlarga ravishdan tashqari holat deb qarash, morfologik o'zgarman mustaqil ma'noli so'zlarni shu guruhga yig'ish ravishni belgilovchi to'g'ri tasnif asosi bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. – Т.: Мухаррир, 2010. –131 б.
2. Баскаков А.Н. Каракалпакский язык. Часть 1. –М., 1952. – 281 с.
3. Гузев В.Г. Очерки по теории тюрского словоизменения: Имя. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1987. –170 с.
4. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Словоизменительные категории в тюркских языках и понятие “грамматическая категория” // Советская тюркология. 1981. - № 3. –С. 27-31.
5. Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. – 676 с.
6. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзларнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. Филол. фан. ном...дис. –Т.,1994. –141б.
7. Мамаражабова З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номзоди ...дис. автореф. – Т., 2004. 24 б.
8. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988, –96 б.
9. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2001. 4-сон. 5-9- б.
10. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. Филол. фанлари номзоди ...дис. автореф. –Т., 1995. –24 б.
11. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Т.: Фан, 1989. – 190 с.
12. Севортян Э.В. К проблеме частей речи в тюркских языках // Вопросы грамматического строя. -М., 1955. –190 с.
13. Сулаймонова Г. “Яхши” сўзининг полифункционаллиги // Тил ва адабиёт таълими. – Т., 2005. 6-сон. 24-25-б.
14. Тўйчибоев Б. Равиш гуруҳидаги сўзларнинг тадрижий тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2003. 2-сон. 55-56-б.
15. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақида лингвистик назариялар. Монография. – С. 1996. – 127б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. А. Мадвалиев таҳрири остида. –Т.: ЎЗМЭ, 2007. –687 б.